



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2023-YIL YANVAR-IYUN



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **8150** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **6319** ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **77,5 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Toshkent shahri bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun oylarida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-iyun oylarida** bozor xizmatlari hajmi **85 751,8** mlrd.so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-iyun oylariga** (**115,8 %**) nisbatan o'sish sur'ati **117,5 %** ni tashkil etgan.


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar -iyun oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	85 751,8	100,0	117,5
Uchtepa	4 758,5	5,5	111,1
Bektemir	2 973,3	3,5	113,4
Yunusobod	13 757,1	16,0	123,2
Mirzo Ulug'bek	8 622,3	10,1	123,1
Mirobod	9 263,2	10,8	110,9
Shayxontohur	9 515,8	11,1	120,0
Olmazor	6 965,4	8,1	114,1
Sergeli	4 442,0	5,2	123,2
Yakkasaroy	7 413,9	8,6	114,5
Yashnobod	7 437,7	8,7	118,3
Yangihayot	1 365,1	1,6	118,0
Chilonzor	9 237,5	10,8	115,9

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (iyun oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati, % da


2023-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **85 751,8** ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar- iyun oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **117,5 %** ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar- iyun oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	85 751,8	117,5
Uchtepa	16 125,0	111,1
Bektemir	52 163,1	113,4
Yunusobod	37 241,8	123,2
Mirzo Ulug'bek	26 521,9	123,1
Mirobod	61 672,7	110,9
Shayxontohur	26 301,4	120,0
Olmazor	17 523,1	114,1
Sergeli	27 151,3	123,2
Yakkasaroy	57 382,8	114,5
Yashnobod	25 462,7	118,3
Yangihayot	8 318,9	118,0
Chilonzor	33 849,3	115,9

2023-yilning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **32,4** % ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **9,8** %, savdo xizmatlari **21,7** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **10,7** %, ta'lim xizmatlari **5,0** % darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,1** % darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar- iyun oylarida, % da)




Taqqoslash uchun: 2023-yilning yanvar- iyun oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **32,4** % ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,1** % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun oylarri)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	85 751,8	100,0	117,5
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	9 173,6	10,7	122,4
Moliyaviy xizmatlar	27 808,7	32,4	126,4
Transport xizmatlari	8395,3	9,8	118,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	4 100,9	4,8	110,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 947,9	4,6	111,8
Savdo xizmatlari	18 635,0	21,7	112,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 767,3	3,2	114,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4 251,6	5,0	118,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 775,6	2,1	103,4
Ijara xizmatlari	1 133,9	1,3	107,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	370,0	0,4	104,3
Shaxsiy xizmatlar	891,3	1,0	104,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 815,3	2,1	90,5
Boshqa xizmatlar	4 786,3	5,6	111,3

oliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyun oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **4 583,1** mlrd. so'mga oshib, **27 808,7** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **126,4 %** ni tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

2023-yilning yanvar-iyun

oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Yordamchi moliyaviy faoliyat

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **320** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **3,9 %** ini tashkil etdi. Ulardan **3837** birlik (**4,1 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **8 395,3** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-iyun oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari (yanvar-iyun oylarida)




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi


(2023-yil yanvar-iyun oylarida)



Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 100,9** mlrd. so‘mga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-iyun oyilarda)




2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **5,0** % ga pasayganligi qayd etildi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **10,7** %ni tashkil etdi.

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo‘lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **61,3** %.

Taqqoslash

uchun: 2022-yil yanvar-iyun oylarida ushbu ko‘rsatkich **61,3** % ni tashkil etgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**37,1 %** yoki **3025** ming birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **32,0 %** ini (**30164** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi **5 201,7** mlrd. so'mga oshib, **18635,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **2,8 %** ga oshganligi qayd etildi.

Savdo xizmatlari (iyun oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **22,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **7,2** ming birlikka yetdi, shundan **45,1** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-iyun oylarida)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **9173,6** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022-yilning yanvar-iyuniga** nisbatan o'sish sur'ati **122,4** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun oylarida)




“Ta’lim” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyun oylarida)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **4251,6** mlrd. so’mga yetdi. **2022-yil yanvar-iyun oylariga** nisbatan o’sish sur’ati **118,6 %** ni tashkil etdi.


■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023-yilning yanvar-iyun oylarida** ularning ulushi **5,0 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **113** birlikni tashkil etdi, shundan **2 006** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(yanvar-iyun oylarida)*



2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **1 775,6** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1 %** ini tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

Toshkent shahar. 1 775,6 *(2023- yil yanvar-iyun oylarida, mlrd. so'mda)*

Uchtepa 126,8

Bektemir 84,4

Yunusobod 186,4

Mirzo Ulug'bek 211,7

Mirobod 99,4

Shayxontohur 176,9

Olmazor 243,3

Sergeli 121,7

Yakkasaroy 180,2

Yashnobod 128,9

Yangihayot 25,1

Chilonzor 190,8


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **336** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **5209** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyun oylarida)

2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **6,3** mlrd. so'mga oshib, **3947,9** mlrd. so'm-ni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-iyun oylarida)



2023-yilning yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **2 767,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,2 %** ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023-yil yanvar-iyun oylarida, mlrd. so'mda)

Toshkent shahar.	2 767,3	Sergeli	143,9
Uchtepa	229,5	Yakkasaroy	223,9
Bektemir	65,1	Yashnobod	158,1
Yunusobod	330,4	Yangihayot	68,9
Mirzo Ulug'bek	316,9	Chilonzor	522,3
Mirobod	197,1		
Shayxontohur	230,9		
Olmazor	280,2		

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar-iyun oylarida)



2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **250,9** mlrd. so'mga oshib, **2023- yil yanvar-iyun oylarida 1 133,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-iyun oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-203-88-15 (25)